

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejlari faoliyati to‘g‘risida” 2007-yil 17-maydagi PQ-100-son Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 1-dekabrdagi PF-5270 son «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. - <https://lex.uz/docs/3436192>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-3-oktabrdagi PQ-4860 son «Alohiba ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim- tarbiya berish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni.
4. Екатерина Михальч. Инклюзивное образование. 2021
5. R.Shomaxmudova. Inklyuziv ta‘lim nazariyasi va amaliyoti asoslari. Toshkent- 2007-y.

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Kamoljonova Vasilaxon Jahongir qizi

SAMBHRAM UNIVERSITY

Bachelor of Business Administration Faculty

BBA. 101-group

Ilmiy rahbar: Ijtimoiy-gumanitar fanlar

Kafedrasi katta o’qituvchisi, Hoshimov To’lqin.

Annotatsiya. Mazkur maqolamda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti rivojlantirishning asoslari ko‘p jihatdan milliy resurslar, innovatsiyalar, tashqi savdo aloqalari va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan siyosatga asoslanganligini yoritib berilgan. Ushbu siyosatning asosiy jihatlari esa: Iqtisodiy islohotlar va liberalizatsiya, Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, Sanoatni diversifikatsiya qilish, Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, Tashqi savdo va integratsiya, Infratuzilma rivoji, haqida ham so‘z boradi. Bu asoslarni esa O‘zbekistonning iqtisodiy mustahkamligini oshirish, aholi turmush darajasini yaxshilash va milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish uchun zarurligini ham keltirib o’tganman.

Kalit so'zlar: Mikro va Makro iqtisodiyot, Qishloq xo'jaligi, YIM, (Yalpi ichki mahsulot), Harakatlar strategiyasi, Iqtisodiy davr va bosqichlari, Model, Rivojlangan va Rivojlanayotgan mamlakatlar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida, bozor munosabatlariga asoslangan milliy iqtisodiyot barpo etildi. O'tish davri va global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz qiyinchiliklariga qaramasdan mamlakatimiz iqtisodiyoti jahon mamlakatlari orasida yuqori o'sish sur'atlarini namoyish etib kelmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakat aholisi *1,5 marta o'sgan holda iqtisodiyot 5 martadan ziyod, aholi jon boshiga daromadlar 9 barobar oshdi*. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan olib borilayotgan islohotlar samarasi yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberlashtirish bo'yicha ustuvor yo'naliishlarni amalga oshirish maqsadida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini qabul qildi*.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi.

Ayni vaqtida mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab

chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan **2017 -2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi**. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo‘naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish.

Qonun ustuvorligini ta’minalash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo‘naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchilagini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to‘laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash.

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeyini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalgan etish.

Maqroiqtisodiy sohalarni rivojlantirish:

Makroiqtisodiy mutanosiblikni saqlash, qabul qilingan o‘rta muddatli dasturlar asosida tarkibiy va institutsional o‘zgarishlarni chuqurlashtirish hisobiga yalpi ichki mahsulotning barqaror yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minalash;

Xarajatlarning ijtimoiy yo‘naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat budgetining barcha darajalarida daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budgetlararo munosabatlarni takomillashtirish.

Ilg‘or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta’minalash.

Bank tizimini isloh qilishni chuqurlashtirish va barqarorligini ta’minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligi va ishonchlilagini mustahkamlash, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlashni yanada kengaytirish.

Qishloq xo’jaligini yanada rivojlantirish va kengaytirish:

Yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish.

Paxta va boshoqli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo’shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog‘ olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog‘ va uzumzorlarni joylashtirish hisobiga ekin maydonlarini yanada optimallashtirish.

Fermer xo’jaliklari, eng avvalo, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda, qayta ishlash, tayyorlash, saqlash, sotish, qurilish ishlari va xizmatlar ko’rsatish bilan shug‘ullanayotgan ko‘p tarmoqli fermer xo’jaliklарini rag‘batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, melioratsiya va irrigatsiya obyektlari tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo, suv va resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, unumdarligi yuqori bo‘lgan qishloq xo’jaligi texnikasidan foydalanish.

Qaysi model to’g’risida so’z bormasin, asosiy maqsad samarali iqtisodiyotni barpo etish, xalq turmush farovonligini yuksaltirishdan iborat.

Model-eng avvalo mavjud tabiiy ishlab chiqarish va buyuk aql-zakovatning amaldagi jarayonidir. O’tgan yillar mobaynida, O’zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi yanada yaxshilandi, u xalqaro hamjamiyatda o’zining munosib o’rnini egalladi. Ijtimoiy madaniy sohalarda, erishayotgan ulkan yutuqlar nufuzli xalqaro tashkilot va ekspertlar tomonidan e’tirof etilib, yuqori baholanmoqda. Ana shunday model sifatida, O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ilgari surgan “o’zbek moduli” qabul qilindi. Unga asosan qilib bozor munosabatlariga o’tishning beshta tamoyili olindi.

1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi.
2. Davlat bosh islohotchi.
3. Qonun ustunligi.
4. Kuchli ijtimoiy-siyosat.

5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o’tish.

Jumladan, 1990-yillar o’rtasida O’zbekiston g’alla erkinligiga erishdi. 1996-yillardan avtomobil sanoati ishga tushdi. 2011-yili tez yurar poyezd qatnovi boshlandi. Islom Karimov davrida tashqi qarzdorlik yalpi ichki mahsulotning 10 foizini tashkil qildi. Shavkat Mirziyoyev esa yalpi ichki mahsulotda tashqi qarzdorlik 36 foizdan ortdi. Chunki, chetdan katta miqdorda kapital olib, sanoat, qishloq xo’jaligi, ta’lim, sog’liqni saqlash sohalariga jalb qildi.

Mamlakatda boy va kam ta’minlangan oilalar bo’lgani singari, dunyoda ham boy va kam ta’minlanmagan mamlakatlar bor. Xalqning boy yoki kambag’alligi uning iqtisodiy o’sish darajasi, ya’ni aholi jon boshiga to’g’ri keladigan yalpi milliy mahsulot hajmi bilan o’lchanadi. Shunga qarab, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga bo’linadi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, malakali mutaxassislar bilan ta’minlangan bo’lib, asosan sanoat ishlab chiqarish sohalariga ixtisoslashgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar davlatlarning o’zi yana ikkiga-daromadlar darajasi o’rtacha va past bo’lgan davlatlarga bo’linadi.

Bu davlatlar iqtisodiyoti asoasan xomashyo eksporti va qishloq xo’jaligiga ixtisoslashgan. O’zbekiston daromadlar darajasi o’rtacha bo’lgan rivojlanayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Daromadlar darajasi past bo’lgan mamlakatlarda ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarflanadigan sarmoya juda kam bo’ladi. Ishlab chiqarish hajmi kamayib, o’sib borayotgan aholi daromadlari borgan sari kamayaveradi. Iqtisodiy farovonlik mamlakat bo’yicha yaratilgan yalpi mahsulotning ko’pligi bilan emas, balki milliy boylikni aholi manfaatlarini ko’zlab, adolatli va oqilona qayta taqsimlashga bog’liq. Shu bilan birga, tadbirkorlikga ham alohida e’tibor qaratilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda “O’zbekiston Respublikasining 2022—2026 – yillardaga mo’ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihibalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to’g’risida”gi PQ-72-son **qaroriga** muvofiq, shuningdek, qishloq hududlarida ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatishni rivojlantirish, yangi korxonalarini tashkil etish yoki mavjud korxonalar salohiyatini kengaytirish, kichik biznes subyektlari uchun moliviyy va nomoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash, qishloqdagagi yoshlari ayollarni biznesga keng jalb qilish hamda Jahon banki bilan hamkorlikni yanada kengaytirish to’g’risida qaror e’lon qilindi. Natijada esa aholi turmush faravonligi va iqtisodiyot yanada yaxshilanishi mumkin bo’ladi.

Xulosa qilib aytsam, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini yanada yaxshilash va mamlakat aholisi turmush darajasining yuqori bo'lishi iqtisodiy faravonlikdan dalolat beradi. Iqtisodiy faravonlik mamlakat bo'yicha yaratilgan yalpi mahsulotning ko'pligi bilan emas, balki milliy boylikni aholi manfaatlarini ko'zlab, adolatli va oqilona qayta taqsimlashga bog'liq. Mamlakatimizda so'nggi yillarda keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotimiz jahon iqtisodiyotiga faol ravishda integratsiya qilina boshlandi. Yurtimizga turli mamlakatlardan yirik kompaniyalar o'z kapitali bilan kirib kela boshladi. Chet el investitsiyalari jalb qilinishi natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti yakkalashish, alohidalashish maqomini tark etmoqda. Yurtimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar borgan sari jahon bozorida xaridor bo'lib, O'zbekiston brendi dunyo mamlakatlariga tanilib bormoqda. Xalqaro moliya bozorida ham keyingi yillarda O'zbekiston sezilarli bitimlarni amalga oshirmoqda. Zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'z faoliyatida keng tatbiq etayotgan milliy bozor infratuzilmalari xalqaro bozor infratuzilmalari bilan tobora uyg'unlashib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора –тадбирлари тўғрисида”ги қарори. “Халқ сўзи” газетаси. 2017 йил, 21 апрель, № 79 (6773)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги №ПФ-4947 сонли Фармони. //Халқ сўзи. 2017 йил 8 феврал.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 мартағи “2017 - 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга ПФ-5953-сонли Фармони. <https://lex.uz/>
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори, Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, ПҚ – 2909 -сонли, 18-сон, 313-модда , 2017 йил 20 апрель.
5. Hakimova M.F. Zamonaviy iqtisodchining shaxsi. -T.: IQTISODIYOT, 2019.
6. Fayzullaeva N.S. Ta'lim menejmenti. - T. IQTISODIYOT, 2019.
7. Hakimova M.F., Musaxanova G.M. Kasbiy pedagogika.-T.: IQTISODIYOT, 2019.

8. Хакимова М., Лутфуллаева Н. ва бошқалар. Maxsus fannlarни ўқитиши методикаси. - Т.: IQTISODIYOT, 2019.

GENOM KASALLIKLARI. BU KASALLIKLARNI OLDINI OLİSH BO'YICHA GEN INJENERLIGINING YUTURLARI.

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Biologiya yo`nalishi 1-22 guruh talabasi
Tursunqulova Dinara Davlat qizi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada odamlarda uchraydigan gen kasalliklari masalalari ko'rib chiqilgan. Genom kasalliklari bo'yicha birlamchi ma'lumotlar keltirilgan. Ayrim kasalliklarning qanday belgilar orqali yuzaga kelishi tushuntirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Gen, dominant, retsessiv, albinizm, fenilketanuriya, daltonizm gemofiliya, gen enjeneriyasi, gen terapiyasi,

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы генетических заболеваний у человека. Представлены первичные данные о геномных заболеваниях. Объясняются симптомы некоторых заболеваний.

Ключевые слова: Ген, доминантный, рецессивный, альбинизм, фенилкетанурия, дальтонизм, гемофилия, генная инженерия, генная терапия,

Annotation. This article deals with issues of genetic diseases in humans. Primary data on genomic diseases are presented. The symptoms of some diseases are explained.

Key words: Gene, dominant, recessive, albinism, phenylketonuria, color blindness, hemophilia, genetic engineering, gene therapy,

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Genom (nem. Genom) — xromosomalar (unda joylashgan genlar bilan birga) gaploid to'plami; individ genetik tuzilishining asosiy elementlari majmui. "genom" terminini fanga nemis biolog G. Vinkler kiritgan (1920). Gaplofazada har bir hujayra bitta genomga, diplofazada esa ikkita genomga ega bo'lib, zigota hosil bo'lishida ularning biri erkak, ikkinchisi urg'ochi gametalardan o'tgan bo'ladi. Genom asosiy genetik va fiziologik sistemalarni o'zida namoyon qilib, uning genetik jihatdan mukammalligi normal gameta va zigotalarning hosil bo'lish